

111. 9 sonini ko'paytirish va 9 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
tillar va jamiyat.


Ko'paytuvchi, ko'paytma.



1. Madina telefonda xolasi bilan 3 minut, buvisi bilan esa 9 marta ko'proq vaqt gaplashdi. Madina buvisi bilan qancha vaqt gaplashdi?



2. Telefon orqali Amerika bilan bir minut gaplashish uchun 9 ming so'm to'lash kerak. 2 minut gaplashish qancha turadi? 5 minut-chi? 10 minut-chi?



9 ga ko'paytirish jadvali

a	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
a · 9	9	18	27	36	45	54	63	72	81	90



3. Amallar bo'yicha hisoblang.

$$\begin{array}{c}
 \begin{array}{ccc}
 9 & \cdot & 5 \\
 \diagdown & & \diagup \\
 & \square & \\
 \diagup & & \diagdown \\
 \square & - & \square \\
 \diagdown & & \diagup \\
 & \square &
 \end{array}
 \qquad
 \begin{array}{ccc}
 7 & \cdot & 9 \\
 \diagdown & & \diagup \\
 & \square & \\
 \diagup & & \diagdown \\
 \square & + & \square \\
 \diagdown & & \diagup \\
 & \square &
 \end{array}
 \end{array}$$

111. 9 sonini ko'paytirish va 9 ga ko'paytirish



4. Ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

- 6 sonini 9 marta orttiring.
- 7 sonini 9 ta orttiring.
- 9 sonini uch marta qo'shing.
- 10 soniga 9 sonini qo'shing.



5. Komila ingliz tilini o'rganmoqda. Agar Komila kuniga 9 tadan yangi so'z o'rgansa, u bir haftada nechta yangi so'z o'rganadi?



6. Akmalning turli mamlakatlarda do'stlari bor. Rasm bo'yicha aniqlang:

- Hozir Toshkentda qanday vaqt?
- Agar hozir Akmal yashayotgan yerda soat ertalabki 10 bo'lsa, boshqa mamlakatlarda sutkaning qaysi vaqti bo'ladi?
- Toshkentda soat 14:00 bo'lganda Pekinda soat necha bo'ladi?

Rasm bo'yicha yana boshqa savollar o'ylab toping.



7. Malika yoshi o'zidan 9 marta katta bo'lgan buvisiga qo'ng'iroq qildi. Agar Malika 8 yoshda bo'lsa, buvisi necha yoshda bo'ladi?



8. Hisoblang. Har bir ustundagi sonlar nimasi bilan farqlanadi?

$$\begin{array}{l} (9 \cdot 9) - 1 \\ 9 \cdot (9 - 1) \end{array}$$

$$\begin{array}{l} (9 \cdot 5) + 5 \\ 9 \cdot (5 + 5) \end{array}$$

$$\begin{array}{l} (3 + 6) \cdot 9 \\ 3 + (6 \cdot 9) \end{array}$$